



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdumalikov R., Xoldorov T. Turizm: O'quv qo'llanma. O'qituvchi 1988.
2. Xolliiev I., Ikromov A. Ekologiya: O'quv qo'llanma T.: Mexnat, 2001, 208 b
3. O'zRning "Turizm to'g'risida"gi qonunini T.: 1999. Yangi tahrir. 2019. 18 iyun.

TRANSPORT VOSITALARI HARAKATLANISHINI MONITORING QILISHNING BUGUNGI KUNDAGI AN'ANAVIY HOLATI

**Mustafoev Behzod Farxodovich,
PhD, dots. Kulmuradov Dilshod Istamovich**

Jizzax politexnika instituti
dilshodkulmuradov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada transport vositalari harakatlanishini monitoring qilishning bugungi kundagi an'anaviy usullari, ularning afzalliklari va kamchiliklari ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, monitoring jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar, an'anaviy nazorat mexanizmlarining samaradorligi hamda ularning zamonaviy raqamli yechimlarga o'tishdagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: transport monitoringi, yo'l harakati xavfsizligi, GPS, yo'l-patrul xizmati, transport logistikasi, nazorat tizimlari.

Kirish. XXI asrda transport vositalarining soni ortib borishi, shahar va hududlararo yo'llarda transport oqimining keskin ko'payishi transport harakatini samarali monitoring qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Transport vositalari harakatini kuzatish nafaqat yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, balki logistika samaradorligini oshirish, ekologik xavflarni kamaytirish va transport xizmatlari sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda monitoring jarayonlari ikki asosiy yo'nalishda olib boriladi:

1. An'anaviy monitoring usullari – postlarda turuvchi yo'l patrul xizmati, videokuzatuv kameralari, tezlik o'lchovchi radarlar va nazorat punktlari.

2. Zamonaviy raqamli monitoring – GPS/GLONASS tizimlari, intellektual transport tizimlari (ITS), sun'iy intellekt asosidagi monitoring platformalari.

Maqolada birinchi yo'nalish – ya'ni an'anaviy monitoring usullari bugungi kundagi holati ilmiy jihatdan yoritiladi.

Transport vositalarini monitoring qilishning an'anaviy usullari.

1. Yo'l patrul xizmati faoliyati. O'zbekiston va boshqa davlatlarda transport monitoringining eng qadimiy va keng tarqalgan usuli bu – yo'l patrul xizmati (YPX) tomonidan amalga oshiriladigan nazoratdir. Xodimlar transport vositalarining hujjatlarini tekshiradi, tezlikni radar yordamida o'lchaydi va yo'l harakati qoidalarining buzilishini oldini olishga intiladi.

Afzalliklari:

- inson omili tufayli vaziyatni tezda baholash imkoniyati;
- qoidabuzarliklarga bevosita chora ko'rish;
- yo'l-transport hodisalari sodir bo'lganda tezkor yordam ko'rsatish.

Kamchiliklari:

- inson omili tufayli xatoliklar ehtimoli yuqori;
- korrupsiya xavfi;
- katta transport oqimini qamrab olishda samarasiz.

2. Nazorat punktlari va qo‘riqlash postlari. Shaharlararo yo‘llarda transport monitoringi ko‘pincha maxsus nazorat punktlari orqali olib boriladi. Bu punktlarda tezlik nazorati, yuk avtomobillari og‘irligini tekshirish, hujjatlarni ko‘rib chiqish amaliyoti mavjud.

Afzalliklari:

- yuk tashish xavfsizligini ta‘minlash;
- noqonuniy yuk tashishlarni aniqlash;
- texnik nosoz transport vositalarini yo‘ldan chetlashtirish.

Kamchiliklari:

- tirbandlik va navbatlarning yuzaga kelishi;
- muntazam texnologik yangilanish talab etilishi;
- faqatgina punkt joylashgan hudud doirasida samarali bo‘lishi.

3. Radar va videokuzatuv kameralari. Radarlar tezlikni aniqlashda eng asosiy vosita sifatida qo‘llaniladi. Bundan tashqari, ko‘plab shahar va magistral yo‘llarda videokameralar o‘rnatilgan.

Afzalliklari:

- avtomatik ravishda dalillarni to‘plash;
- qoidabuzarliklarni isbotlash imkoniyati;
- transport oqimini statistik tahlil qilish imkoniyati.

Kamchiliklari:

- texnik nosozliklar tufayli xatoliklar yuzaga kelishi;
- katta moliyaviy xarajatlar talab qilinishi;
- barcha hududlarni to‘liq qamrab ololmasligi.

An‘anaviy monitoringning hozirgi kundagi muammolari.

1. Transport oqimining ko‘pligi – mavjud tizimlar barcha avtomobillarni bir vaqtda kuzata olmaydi.

2. Texnologik eskirish – radarlar va kameralar tezkor modernizatsiya talab etadi.

3. Inson omiliga qaramlik – an‘anaviy tizimlarda ko‘pincha xodimlarning xulosasiga tayaniladi.

4. Hududiy chegaralanganlik – monitoring faqat punkt va postlarda amalga oshiriladi, uzluksiz kuzatuv imkoniyati cheklangan.

Muhokama. Bugungi kunda transport vositalarini monitoring qilishning an‘anaviy usullari hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ular yo‘l patrul xizmati faoliyatini ta‘minlashda va ayrim vaziyatlarda samarali natija bermoqda. Biroq transport oqimining ortishi, urbanizatsiya jarayonlari, logistika tizimining murakkablashuvi an‘anaviy monitoringni zamonaviy intellektual tizimlar bilan integratsiya qilish zaruratini tug‘dirmoqda.

An‘anaviy tizimlarning afzalligi – ularning huquqiy asoslar bilan mustahkamlanganligi va amaliyotda keng qo‘llanilishidir. Ammo ularning

kamchiliklari – tezkor, aniqlik darajasi yuqori va raqamlashtirilgan boshqaruv imkoniyatining yo‘qligi hisoblanadi.

Xulosa. Transport vositalarining harakatlanishini monitoring qilishning an’anaviy tizimlari hali ham amaliyotda muhim o‘rin egallab turibdi. Ammo ularning samaradorligini oshirish uchun:

- texnologiyalarni yangilash;
- elektron va raqamli tizimlar bilan integratsiyalash;
- inson omiliga qaramlikni kamaytirish;
- avtomatlashtirilgan va intellektual transport tizimlarini bosqichma-bosqich

joriy etish lozim.

Kelajakda transport monitoringi samaradorligi an’anaviy va raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2021.
2. Abdurahmonov M. Transport logistikasida monitoring tizimlari. – Toshkent: Fan, 2020.
3. European Transport Safety Council. Monitoring road safety performance indicators. Brussels, 2019.
4. Kuchеров A. Transport control and monitoring systems. Moscow: Infra-M, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi IIV YHXBB rasmiy ma’lumotlari (www.iiv.uz).
6. Адиллов О. К., Кулмурадов Д. И., Каршибаев Ш. Э., Нуруллаев У. А. Проблемы управления автоперевозками и методы их решения. «Молодой учёный». № 2 (82). Январь, 2015 г.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING NAZARIY HAMDA AMALIY JIHATLARI

PhD, dots. Mallayeva E’tibor

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika va psixologiyaning nazariy hamda amaliy jihatlarini, ularning o‘zaro bog‘liqligi, ta’lim jarayonida psixologik yondashuvlarning qo‘llanilishi va innovatsion metodlar bilan uyg‘unligi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik va psixologik tamoyillarning samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogika, psixologiya, ta’lim va tarbiya, Avesto, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek Everest cho‘qqilari motivatsiya, Elektron ta’lim, STEM-ta’lim.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, madaniy-ma’naviy va ilmiy hayotimizda ko‘plab yangiliklar, umumbashariy